

**G.V.PLEXANOV NOMIDAGI ROSSIYA IQTISODIYOT  
UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.22/30.12.2019.I.100.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**YUSUPOV FAYZULLA YAKUBOVICH**

**RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KORXONALARNING  
MOLIYAVIY BAHOLASH USULLARI VA SALOHİYATIDAN  
FOYDALANISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
economical sciences**

**Yusupov Fayzulla Yakubovich**

Raqamlashtirish sharoitida korxonalarning moliyaviy baholash usullari va salohiyatidan foydalanish tizimini takomillashtirish ..... 3

**Юсупов Файзулла Якубович**

Совершенствование системы оценки финансовых показателей и использования потенциала предприятий в условиях цифровизации ..... 25

**Yusupov Fayzulla Yakubovich**

Improvement of the system for assessing financial indicators and utilizing enterprise potential in the context of digitalization..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 52

**G.V.PLEXANOV NOMIDAGI ROSSIYA IQTISODIYOT  
UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.22/30.12.2019. I.100.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**YUSUPOV FAYZULLA YAKUBOVICH**

**RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KORXONALARNING MOLIYAVIY  
BAHOLASH USULLARI VA SALOHIYATIDAN FOYDALANISH  
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3591 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida ([www.reu.uz](http://www.reu.uz)) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Abdullayeva Shaxlo Rustamovna**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Nazarov Sharofiddin Xakimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aliyev Ulug'bek Mannonovich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi

**Yetakchi tashkilot:** **Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi 2025 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/30.12.2019.I.100.01 raqamli Ilmiy kengashning majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Shaxriobod ko'chasi, 3 uy Tel.: (99871) 262-43-50; faks: (99871) 262-43-60; e-mail: info@reu.uz

Dissertatsiya bilan G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filialining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Shaxriobod ko'chasi, 3 uy Tel.: (99871) 262-43-50; faks: (99871) 262-43-60; e-mail: info@reu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**K.X. Abduraxmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Z.G. Shakarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Z.Ya. Xudoyberdiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda raqamli transformatsiya jarayonining jadallashuvi kompaniya (xo‘jalik subyekt)larning moliyaviy barqarorligi va resurslarni strategik boshqarish darajasiga, moliyaviy faoliyat natijadorligiga sezilarli darajada ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. “Raqamli texnologiyalari yuqori darajada rivojlangan kompaniyalar keyingi o‘n yil davomida har yilgi daromadlarini 100 milliard dollarga oshirishi mumkin”<sup>1</sup>ligini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda raqamli transformatsiya asosida, jumladan qarorlar qabul qilish tezligini oshirish, xatarlarni samarali boshqarish, sun‘iy intellekt, bulutli hisoblash va katta ma‘lumotlar kabi texnologiyalardan foydalanish kompaniyalarning bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishni ta‘minlashning muhim asoslaridan biri sifatida qaralmoqda.

Jahonda raqamlashtirish texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida korxonalar moliyaviy barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida xo‘jalik subyektlarining moliyaviy faoliyatini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish yo‘nalishidagi tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada kompaniyalar bozor ulushi va rentabelligi kabi ko‘rsatkichlari integratsiyasining raqamli yechimlarini asoslash, moliyaviy faoliyatni baholashning an‘anaviy yondashuv, vosita va usullarini zamonaviy raqamli texnologiyalar, jumladan sun‘iy intellektga ko‘ra tubdan takomillashtirish, moliyaviy xatarlar tahlili, strategik rejalashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishning raqamli echimlarini asoslash kabi mavzulardagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini isloh qilish jarayonida raqamli transformatsiyaga ko‘ra moliya resurslarini samarali boshqarish, raqamli texnologiyalar va standartlarga ko‘ra moliyaviy holatni baholash va resurslarni boshqarishning yanada egiluvchan va aniq instrumentlarini joriy etish, korxonalar moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish va barqaror o‘shishni ta‘minlash kabi yo‘nalishlarda keng qamrovli dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida<sup>23</sup> muhim vazifalardan biri sifatida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda axborot texnologiyalari va Elektron hukumatni keng joriy etish vazifalari belgilangan. Bu borada raqamli transformatsiyaga ko‘ra moliyaviy baholash usullarini takomillashtirish, korxonalarining raqamlashtirish darajasini oshirish va infratuzilmani yaxshilash, zamonaviy raqamli vositalar – sun‘iy intellekt, blokcheyn, katta ma‘lumotlar va bulutli texnologiyalar asosida moliyaviy boshqaruv usullarini takomillashtirish kabi yo‘nalishdagi tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

---

<sup>1</sup> Kude, O., Stang, A., Ley, M., & Li, Z. Strategic Digital Transformation Guidance: A Study of Global Financial Institutions. Boston Consulting Group, 2022. Available at: <https://www.bcg.com>

<sup>2</sup> Цифровая трансформация экономики: о целях и предварительных итогах совместного проекта ОЭСР и Республики Узбекистан, нацеленного на повышение конкурентоспособности страны. Агентство стратегических реформ при Президенте Республики Узбекистан. URL: <https://asr.gov.uz>

<sup>3</sup> Стратегия «Цифровой Узбекистан — 2030» и меры по ее реализации. Lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/5055037>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PQ-347-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi, 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta‘minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sinh uchun sharoit yaratish bo‘yicha navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 19-sentyabrdagi PQ-3946-son “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi.** Mazkur ilmiy tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xo‘jalik subyektlarining moliyaviy salohiyatini baholash usullari va ulardan foydalanish strategiyalarini takomillashtirish muammosi so‘nggi yillarda, ham xalqaro, ham milliy darajada faol o‘rganilmoqda. Ushbu mavzuning asosiy jihatlari raqamlashtirishning moliyaviy jarayonlarga ta‘siri, resurslarni boshqarishni optimallashtirish va tashkilotlar raqobatbardoshligini oshirish bilan bog‘liq.

Xalqaro miqyosda raqamli transformatsiya sharoitida moliyaviy salohiyatdan foydalanish strategiyalari va baholash usullarini takomillashtirish muammosi bilan shug‘ullanadigan olimlar qatoriga Martin Verhaf, Richard Buxt, Xuong Tran Thi, Lan Dong Thi Ngok va Son Nguen Xan, Basar Bash, Peter Gomber, Shao Chen, Xao Pan, Fransua Vial va boshqalar kiradi. Ushbu olimlar raqamli transformatsiya va uning zamonaviy biznesdagi moliyaviy strategiyalar va baholash usullariga ta‘siri bo‘yicha muhim hissa qo‘shmoqdalar.

Rossiyada moliya sohasining raqamli transformatsiyasi va xo‘jalik subyektlarining moliyaviy salohiyatini baholash usullarini takomillashtirish masalalari bilan bir qator tadqiqotchilar va ilmiy jamoalar shug‘ullanmoqda. Ular qatorida A.V. Karagodin va T.Yu. Mazurina, Yu.S. Ezrox, A.A. Metelskiy, I.V. Makarova va A.Yu. Pavlika, V.E. Kosarev va N.V. Folmer, I. Kirichenko, A.A. Nefedov va boshqalar bor. Ushbu olimlar raqamli texnologiyalarning Rossiya moliya sektoriga ta‘sirini o‘rganib, raqamli transformatsiya sharoitida yangi yondashuvlar va strategiyalarni taklif etmoqdalar.

O‘zbekistonda ham iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi va moliyaviy boshqaruv masalalari bilan bir qator yetakchi olimlar shug‘ullanmoqda. Ularning

ayrimlari: akademik K.X. Abduraxmonov, professorlar Sh.X.Nazarov, O.K.Iminov, O.K.Abduraxmonov, Sh.R. Abdullayeva, M.B.Xamidulin, A.S.Usmanov, Sh.D. Kudbiyev, A.A.Omonov, B.A.Islamov, N.K. Zokirova, S.A.Voronin, R.R.Xasanov, U.M. Aliyev,<sup>4</sup> D. Suyunov, A. Kuvandikov, L. Kudratov, T. Axmedov, B. Ruzmetov, Yu. Abdullayev, R.X. Ergashev va h.k. Biroq innovatsion faoliyatni tartibga solish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.<sup>5</sup>

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi Qarshi davlat texnika universiteti va G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FZ-5421033210-sonli "Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining metodologik asoslari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi** xo'jalik subyektlari moliyaviy salohiyatini baholash aniqligini oshirish va uning raqamli transformatsiya sharoitida samarali foydalanish strategiyalarini takomillashtirishga imkon beruvchi samarali yondashuvlar va usullarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

xo'jalik subyektlarining moliyaviy salohiyatini baholashning mavjud usullarini o'rganish;

raqamlashtirish sharoitida qo'llaniladigan moliyaviy baholashning asosiy elementlarini aniqlash;

raqamli texnologiyalar (blokcheyn, katta ma'lumotlar, sun'iy intellekt)ning moliyaviy baholash aniqligi va tezligiga ta'sirini baholash;

mavjud baholash usullarini yangi raqamli shartlarga moslashtirishni o'rganish;

raqamlashtirish sharoitida moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy yo'nalishlar va strategiyalarni aniqlash;

raqamli transformatsiyaning xo'jalik subyektlarining moliyaviy strategiyalariga ta'sirini baholash;

raqamli texnologiyalarni hisobga olgan holda moliyaviy salohiyatdan samarali foydalanish uchun tavsiyalar ishlab chiqish;

moliyaviy boshqaruv amaliyotida taklif etilgan usullarni joriy qilishning asosiy bosqichlarini aniqlash;

---

<sup>4</sup> Abdurakhmanov K.Kh., Abdullayeva Sh.R., Zokirova N.K., Abdurakhmanov O.K., Aliyev U.M. Improving the Efficiency of Attracting Foreign Investment and International Borrowing // *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*. 2020. Vol. 11, Special Issue, pp. 1543–1554. Available at: <https://jardcs.org/abstract.php?id=1547>

<sup>5</sup>Ruzmetov B. Regionalnaya ekonomika. Toshkent "Fan" 2020 g. Otajonov Sh.I. Sovershenstvovaniye mexanizma upravleniya innovatsionnoy deyatelnosti subyektov malogo biznesa v Uzbekistane. Avtoreferat dis., na soiskaniye uchyonnoy stepeni k.en. Tashkent, TGEU 2010.-27 s.; Yo. Abdullayev. Regional iqtisodiyot samaradorligi statistikasidagi muammolari. Iqt. fan. dok. diss. - M.: MESI, 1987.

empirik tadqiqotlarni o'tkazish va taklif etilgan usullarning haqiqiy sharoitlarda samaradorligini baholash;

davlat organlari va biznes uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali moliyaviy salohiyatni oshirishga oid tavsiyalar berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida raqamli transformatsiya sharoitida faoliyat yuritayotgan O'zbekiston Respublikasining xo'jalik subyektlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi sharoitida qo'llanilayotgan va takomillashtirilayotgan moliyaviy baholash usullari va xo'jalik subyektlarining moliyaviy salohiyatdan foydalanish strategiyalaridan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida umumlashtirish va guruhlash, qiyosiy va dinamik tahlil, SWOT-tahlil, ekspert baholash, iqtisodiy-matematik va prognozlash kabi usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

korxonada boshqaruv qarorlarini qabul qilish natijadorligini oshirish va moliyaviy salohiyatining kompleks indeksini aniqlashda korxonaning barqarorligi va raqobatbardoshligi ko'rsatkichlarini mezon sifatida kiritishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

tez o'zgaruvchan raqamli muhitda korxonalar moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va yuzaga keluvchi noaniqliklarni minimallashtirishda risklarni boshqarishning "prognoz – monitoring – tartibga solish" tizimining uyg'unligi hamda tavakkallikni boshqarishning innovatsion yondashuvi ustuvorligining maqsadga muvofiqligi asoslangan;

korxonalar moliyaviy resurslarini boshqarish bo'yicha strategiyalar raqamli iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish va raqamli texnologiyalarni jadallik bilan joriy etish sharoitidagi tejamkorlikni hisobga oluvchi, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, operatsion tavakkalliklarni kamaytirish va rentabellik ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan yangi yondashuvlar asosida takomillashtirilib, korxonalarining moliyaviy baholashda operatsion risklarning chegaraviy qiymatini kamaytirish orqali moliyaviy resurslarning tejamkorlik darajasini oshirish imkoniyatlari asoslangan;

Qashqadaryo viloyati xo'jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy salohiyati bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar bog'liqligining ekonometrik modeliga ko'ra 2030-yilga qadar yalpi mahsulotdagi ulushi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

raqamlashtirish sharoitida moliyaviy resurslarni maqsadli boshqarish, korxonalar moliyaviy resurslarini samarali taqsimlash, operatsion rentabellikni oshirish kabi strategiyalarni O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi xususiyatiga moslashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

blokcheyn texnologiyasidan moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini oshirish, sun'iy intellektdan moliyaviy xatarlarni prognozlash va korxonalar

moliyaviy barqarorligini oshirishda maqsadli foydalanish bo'yicha tavsiyalar asoslangan;

moliya sohasida raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlashga oid davlat organlari uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va korxonalarni raqamli transformatsiya jarayonida qo'llab-quvvatlash choralari o'z ichiga olgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** foydalanilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Qashqadaryo viloyati hokimiyati hisobotlari kabi rasmiy manbalaridan olingani, usul va yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi hamda tegishli xulosalar va tavsiyalar amaliyotda vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilinib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar xo'jalik subyektlarining innovatsion rivojlanish istiqbollari aniqlash va mintaqaviy innovatsion salohiyatdan samarali foydalanishga oid ilmiy-metodik bazani hamda milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish asosida xo'jalik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan Qashqadaryo viloyatida xo'jalik subyektlarining innovatsion rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash, xo'jalik subyektlari faoliyatini rivojlantirish strategiyasini asoslashda qo'llanilgani va xo'jalik subyektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.** Xo'jalik subyektlari moliyaviy salohiyatini baholash aniqligini oshirish va uning raqamli transformatsiya sharoitida samarali foydalanish strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

korxonada boshqaruv qarorlarini qabul qilish natijadorligini oshirish va moliyaviy salohiyatining kompleks indeksini aniqlashda korxonaning barqarorligi va raqobatbardoshligi ko'rsatkichlarini mezon sifatida kiritish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun sharoit yaratish bo'yicha navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi Farmonida inobatga olingan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2025-yil 6-martdagi 05-05/2140-sonli ma'lumotnomasi). Taklif korxonaning EBITDA va aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichlarini 15,0–20,0% ga oshirish imkoniyatini kengaytirishga, avtomatlashtirilgan tekshiruvlar tufayli audit xarajatlarini 30,0% ga qisqartirish imkonini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

tez o'zgaruvchan raqamli muhitda korxonalar moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va yuzaga keluvchi noaniqliklarni minimallashtirishda risklarni boshqarishning "prognoz – monitoring – tartibga solish" tizimining uyg'unligi hamda tavakkallikni boshqarishning innovatsion yondashuvining ustuvorligi taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun sharoit yaratish bo'yicha navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi Farmonida inobatga olingan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2025-yil 6-martdagi 05-05/2140-sonli ma'lumotnomasi). Taklif blokcheyn texnologiyalari va sun'iy intellekt asosida xavflarni boshqarish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni joriy etilishiga ko'ra moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini oshirib, xatoliklar va firibgarlik holatlari ehtimolini 35,0% ga kamaytirish, sun'iy intellekt algoritmlari moliyaviy xavflarni prognoz qilishni yaxshilab, modellarning aniqligini 20,0% ga oshirish, korxonalar xavflarni minimallashtirish bo'yicha oldindan chora-tadbirlar ko'rish imkonini berib, o'zgaruvchan raqamli muhitda moliyaviy yo'qotishlarni 15,0–18,0% ga kamaytirish imkonini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

korxonalar moliyaviy resurslarini boshqarish bo'yicha strategiyalar raqamli iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish va raqamli texnologiyalarni jadallik bilan joriy etish sharoitidagi tejamkorlikni hisobga oluvchi, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, operatsion tavakkalliklarni kamaytirish va rentabellik ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan yangi yondashuvlar asosida takomillashtirilib, korxonalar moliyaviy baholashda operatsion risklarning chegaraviy qiymatini kamaytirish orqali moliyaviy resurslarning tejamkorlik darajasini oshirish imkoniyatlari taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun sharoit yaratish bo'yicha navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi Farmonida inobatga olingan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2025-yil 6-martdagi 05-05/2140-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif korxonalar moliyaviy ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishni o'rtacha 30,0% ga tezlashtirish, katta ma'lumotlar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish operatsion xavflarni aniqlash va kamaytirish jarayonini avvalgiga nisbatan 25,0% ga tezroq ta'minlash imkonini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

Qashqadaryo viloyati xo'jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy salohiyati bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar bog'liqligining ekonometrik modeliga ko'ra 2030-yilga qadar yalpi mahsulotdagi ulushi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlaridan Qashqadaryo viloyati hokimligi tomonidan mintaqadagi korxonalar moliyaviy holatini baholash va istiqbolda salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni asoslashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2025-yil 6-martdagi 05-05/2140-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif viloyati xo'jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy salohiyatining amaldagi holatidan

kelib chiqqan holda yalpi mahsulotdagi ulushi ko'rsatkichlari hamda uzoq muddatli istiqboldagi asosiy faoliyat parametrlarining ishonchliligini ta'minlash va o'zaro muvofiqlashtirish imkonini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan 6 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta jamoaviy monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlarda 5 ta va nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola nashr etildi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 122 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar, tadqiqot obyekti va predmeti shakllantirilgan, ishning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi va chop etilgan ishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Dissertatsiyaning birinchi bobi** xo'jalik subyektlarining moliyaviy salohiyatini baholash va undan foydalanish strategiyalarining nazariy asoslariga bag'ishlangan.

Xo'jalik subyektlarining moliyaviy salohiyati korxonaning samarali boshqaruv, tashqi o'zgarishlarga moslashish va barqaror o'sishga erishish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan barcha moliyaviy resurslar va imkoniyatlar majmuasini anglatadi. Bu salohiyat statik xususiyatga ega emas – u korxonaning boshqaruv va strategiyasi kabi ichki omillar hamda iqtisodiy shart-sharoitlar va bozor o'zgarishlari kabi tashqi omillar ta'sirida o'zgaradi. Moliyaviy salohiyat mohiyatini tushunish tez o'zgaruvchi sharoitlarda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun muhim omildir.

Moliyaviy salohiyatning asosiy jihati uning korxonaning to'lov qobiliyatini qo'llab-quvvatlash, innovatsiya va modernizatsiyaga sarmoya kiritish hamda uzoq muddatli strategik rejalarni amalga oshirish qobiliyatidir. Moliyaviy salohiyat kapital tuzilishi, likvidlik darajasi va tashqi moliyalashtirish manbalariga kirish imkoniyati bilan belgilanadi. Globalashuv va iqtisodiy faoliyatning raqamli transformatsiyasi sharoitida kompaniyalar tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishga majbur bo'lib, bu moliyaviy resurslardan foydalanishni muhim instrumentga aylantiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy iqtisodiyot sarmoyadorlar va kreditorlar tomonidan kompaniyalardan yuqori talablarni qo‘ymoqda, bu esa moliyaviy tahlilning ahamiyatini kuchaytirmoqda. Sun‘iy intellekt va katta ma‘lumotlar kabi texnologiyalarni joriy etish korxonalariga o‘z moliyaviy boshqaruvini samarali tashkil etish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Biroq bunday imkoniyatlardan foydalanish uchun korxonaning moliyaviy salohiyati tuzilishini va uning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarni aniq tushunish talab etiladi. Yuqori moliyaviy salohiyatga ega kompaniyalar ko‘proq sarmoyalarni jalb qiladi va moliyalashtirishning qulay sharoitlariga ega bo‘ladi, bu esa ularning bozordagi raqobat pozitsiyasini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Moliyaviy salohiyatning yana bir muhim xususiyati uning kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlash qobiliyatidir, bu ayniqsa iqtisodiy inqirozlar va kutilmagan bozor o‘zgarishlari sharoitida muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy resurslarni samarali boshqara oladigan kompaniyalar yangi loyihalarga sarmoya kiritish, o‘z faoliyatini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatiga ko‘proq ega bo‘ladi. Moliyaviy salohiyat kompaniyaga o‘z faoliyatini yuqori darajada qo‘llab-quvvatlash bilan birga tashqi chaqiriqlarga moslashish, xatarlarni minimallashtirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, moliyaviy salohiyat ko‘p qirrali toifa bo‘lib, u korxonaning strategik maqsadlarini amalga oshirish uchun mavjud ichki va tashqi resurslar majmuasini o‘z ichiga oladi. Ushbu salohiyatni boshqarish samaradorligini oshirish uchun strategik rejalashtirish va zamonaviy moliyaviy vositalarni joriy qilish zarur, bu korxonalariga raqobatbardosh bo‘lish, xatarlarni minimallashtirish va o‘z resurslaridan eng yaxshi tarzda foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqotda korxonalarning moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini baholash uchun zarur bo‘lgan vositalar va yondashuvlar batafsil ko‘rib chiqildi. Ushbu tadqiqotning o‘ziga xosligi shundaki, u zamonaviy usullardan, jumladan, iqtisodiy modellari, katta ma‘lumotlar tahlili va sun‘iy intellekt yordamida prognozlashning muhimligiga urg‘u beradi, bu korxonalariga o‘z resurslari va o‘shirish imkoniyatlarini aniqroq prognoz qilish imkonini beradi.

Korxonalarning moliyaviy salohiyati faqatgina ularning joriy aktivlari bilan emas, balki resurslardan samarali foydalanish qobiliyati va o‘zgaruvchan iqtisodiy muhit sharoitida barqarorlik bilan ham belgilanadi. Asosiy baholash usuli moliyaviy koeffitsiyentlar, jumladan, likvidlik, rentabellik va aktivlar aylanishini tahlil qilish bo‘lib, ular korxonaning o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish qobiliyatini aniqlashga yordam beradi. Masalan, joriy likvidlik koeffitsiyenti (JLK) quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$JLK = \frac{\text{Aylanuvchi aktivlar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}} \quad (1)$$

Ushbu ko‘rsatkich korxonaning likvid aktivlar hisobi orqali o‘z qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash qobiliyatini baholaydi. Boshqa muhim usullar qatoriga pul oqimi tahlili, SWOT-tahlil va pul oqimlarini diskontlash kiradi. So‘nggi usul kelajakdagi pul oqimlarini hozirgi qiymatga to‘g‘rilab, korxonaning qiymatini baholaydi.

Mazkur bo‘limda asosiy e‘tibor moliyaviy egiluvchanlikning ahamiyatiga qaratilgan, chunki u iqtisodiy noaniqlik sharoitida kompaniyalar uchun asosiy omilga aylanmoqda. Moliyaviy egiluvchanlik quyidagi formula yordamida baholanadi:

$$\text{Moliyaviy barqarorlik} = \frac{\text{Yuqori likvidlikka ega aktivlar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}} + \frac{\text{O‘z mablag‘lari}}{\text{Umumiy aktivlar}} \quad (2)$$

Ushbu usul korxonalariga o‘z qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarini bajarish qobiliyatini tahlil qilishga yordam beradi, bu esa noaniqlik sharoitida juda muhimdir. O‘zbekistonda moliyaviy salohiyatni baholashga yondashuvlarning o‘ziga xosligi xorijiy metodikalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish zarurati bilan bog‘liq. Muhim takliflardan biri — korxonalarining kapitalizatsiyasi va innovatsion salohiyat kabi maxsus ko‘rsatkichlarni inobatga olgan holda Kompleks moliyaviy salohiyat indeksini (KMSI) ishlab chiqishdir.

$$KIFP = \alpha_1 * \frac{CHP}{KA} + \alpha_2 * \frac{CHO}{ZO} + \alpha_3 * IP \quad (3)$$

Hududiy tahlil ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u O‘zbekiston iqtisodiyotidagi mintaqaviy farqlarni inobatga olish imkonini beradi. Korxonalarining moliyaviy salohiyatini mahalliy o‘ziga xosliklardan kelib chiqib baholash formulasi quyidagicha ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

$$FPR = \frac{\text{Moliyaviy potensial}}{\text{Aholi soni}} * \frac{\text{Korxonalar o‘rtacha kapitalizatsiyasi}}{\text{Mamlakat bo‘yicha o‘rtacha kapitalizatsiya}} \quad (4)$$

Ushbu yondashuv mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanishdagi farqlarni inobatga olish imkonini beradi.

Xulosalar va takliflar moliyaviy koeffitsiyentlar uchun milliy normativlarni ishlab chiqish zarurati, korxonalarining moliyaviy salohiyatini aniqroq prognoz qilish uchun katta ma‘lumotlar va tahlil texnologiyalarini integratsiya qilish, shuningdek, valyuta xatarlarini boshqarish uchun stress-testlashni qo‘llash zaruriyatiga qaratilgan. Stress-testlash quyidagi formula yordamida amalga oshirilishi mumkin:

$$VR = \frac{\Delta \text{Foyda}}{\Delta \text{Valyuta kursi}} \quad (5)$$


Ushbu choralar korxonalariga moliyaviy resurslarini samarali boshqarishni yaxshilash, shuningdek, global iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida barqarorlikni ta‘minlashga yordam beradi.

Tadqiqot iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi va sun‘iy intellekt (SI) joriy etilishi sharoitida moliyaviy salohiyatdan samarali foydalanish strategiyalariga qaratilgan. Ushbu yondashuvning muhim xususiyati SI va raqamli texnologiyalarning moliyaviy jarayonlarni optimallashtirishga ko‘rsatadigan katta ta‘siridir. O‘zbekistonda raqamlashtirish moliyaviy boshqaruvga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda va samaradorlikni oshirish hamda xarajatlarni qisqartirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

O‘zbekistonning moliyaviy salohiyatining asosiy ustunligi davlatning raqamli transformatsiyani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan «Raqamli O‘zbekiston 2030» dasturi kabi dasturlari orqali namoyon bo‘ladi. Bu korxonalariga innovatsion texnologiyalarni (blokcheyn, fintex, katta ma‘lumotlar) joriy etish va xalqaro

maydonda raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. SI qo‘llanilishi bozor xatarlarini aniqroq baholash va moliyaviy oqimlarni prognoz qilish imkonini beradi, bu esa asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos yaratadi.

1-rasm korxonaning kapitalni boshqarishning asosiy yo‘nalishlarini birlashtiruvchi tuzilgan moliyaviy strategiya tizimini ko‘rsatadi.



**1-rasm. Korxonaning moliyaviy strategiyasi komponentlari<sup>6</sup>.**

Ushbu rasmda moliyaviy strategiya bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir nechta elementlarni o‘z ichiga olishi aniq ko‘rsatilgan bo‘lib, ularning har biri kompaniyaning barqarorligi va o‘shini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. U kapital shakllantirishning turli sektorlarini aks ettiradi: asosiy va aylanuvchi kapitaldan tortib biznesni rivojlantirish va kompaniya barqarorligining qo‘shimcha yo‘nalishlarigacha.


Mazkur sxema moliyaviy strategiyaning egiluvchanligiga e‘tibor qaratadi, shu bilan birga, qisqa muddatli va uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarni inobatga olish zarurligini ta‘kidlaydi. U real va moliyaviy investitsiyalardan to intellektual sarmoyalargacha bo‘lgan turli xil investitsiya yondashuvlarini ko‘rsatadi, bu raqamli transformatsiya sharoitidagi iqtisodiyot uchun alohida ahamiyatga ega.

Rasm, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozori va pul bozori kabi moliyaviy bozorlardagi turli strategiyalarni o‘z ichiga oladi va ularni kompaniyaning operatsion faoliyati bilan bog‘laydi. Bu uni resurslarni baholash, rejalashtirish va optimallashtirish uchun muhim vositaga aylantiradi, global va raqamli iqtisodiyot

<sup>6</sup> Tadqiqot asosida muallif tomonidan tuzilgan.

sharoitida moliyaviy oqimlarni boshqarishning zamonaviy yondashuvini aks ettiradi.

Kompaniya o'sishining kvadrantli modelini ikki asosiy ko'rsatkichga asoslanadi: daromad o'sish sur'ati va moliyalashtirish o'sish sur'ati. Model biznesni rivojlantirishning ehtimoliy strategiyalarini to'rtta kvadrantga taqsimlaydi, bu kompaniyaning hozirgi holatini baholash va keyingi o'sish uchun eng mos strategiyani tanlash imkonini beradi (2-rasm).



**2-rasm. Kompaniyaning moliyaviy strategiyasini ishlab chiqish modeli<sup>7</sup>.**

Har bir kvadrant modelda rivojlanishning turli ssenariylarini aks ettiradi: biznes qiymatining oshishiga olib keladigan o'sishdan tortib, qo'llab-quvvatlovchi o'sish va foydani ko'paytirishga qaratilgan strategiyagacha. Vizuallashtirilgan sxema kompaniyaning moliyalashtirish va daromad dinamikasiga qarab kvadrantlar o'rtasida qanday harakatlanishi mumkinligini ko'rsatadi va o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda strategiyani moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi.


Ushbu model originaldir, chunki u o'sish sur'atlari va moliyaviy strategiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yaqqol ko'rsatadi, bu ayniqsa raqamli iqtisodiyot sharoitida muhim ahamiyatga ega. U kompaniyalarga bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarga moslashuvchan javob qaytarish va operatsion samaradorlikni oshirish hamda uzoq muddatli barqarorlikka erishish uchun eng yaxshi yo'llarni tanlash imkonini beradi.

Xulosalar raqamli texnologiyalarni moliyaviy strategiyaga muvaffaqiyatli integratsiya qilish barqaror rivojlanish va mamlakatning iqtisodiy xavfsizligining kaliti ekanligini ta'kidlaydi. Asosiy takliflar raqamli texnologiyalarga sarmoyalarni davom ettirish, kadrlar malakasini oshirish, moliyaviy boshqaruvga sun'iy intellektni integratsiya qilish va korporativ hamda davlat tashabbuslari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni o'z ichiga oladi.

<sup>7</sup> Tadqiqot asosida muallif tomonidan tuzilgan.

**Dissertatsiyaning ikkinchi bobida** raqamli transformatsiyaning moliyaviy baholash va strategik rivojlanishga ta'siri ko'rib chiqiladi. O'zbekiston iqtisodiyotidagi raqamli transformatsiya, ayniqsa moliya sektorida, rivojlanish va optimizatsiya uchun yangi istiqbollarni ochmoqda. Sun'iy intellekt, blokcheyn va katta ma'lumotlarni tahlil qilish kabi zamonaviy texnologiyalar biznesning an'anaviy modellari va moliyaviy jarayonlarni o'zgartirishda muhim o'rin tutadi. Bu moliyaviy xizmatlarning shaffofligi, mavjudligi va samaradorligini oshirishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida barqaror iqtisodiy o'sish va xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga hissa qo'shadi.


Raqamlashtirish, shuningdek, kompaniyalarning moliyaviy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 2016–2023-yillar davomida rentabellikning yaxshilanishi va biznes yuritish xarajatlarining kamayishi kuzatildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2023 yilda raqamli texnologiyalardan foydalangan kompaniyalarning aksariyati foydani 15–20% ga oshirishgan, an'anaviy boshqaruv usullariga tayanib faoliyat yuritgan kompaniyalarga nisbatan (3-rasm).



**3-rasm. Raqamlashtirishning rentabellikka, xarajatlarni kamaytirishga va iqtisodiyotdagi avtomatlashtirish darajasiga ta'siri<sup>8</sup>.**

Ma'lumotlarni tahlil qilish 2016-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda kompaniyalarning moliyaviy jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etishning ijobiy dinamikasini aks ettiradi. Operatsion xarajatlarni kamaytirish 2016-yilda 10,0% dan 2023-yilga kelib 40,0% ga ko'tarilgani raqamlashtirish samaradorligining o'sishini ko'rsatadi. Jarayonlarni avtomatlashtirish, robotlashtirilgan tizimlar va raqamli hujjat aylanishi kompaniyalarga rutinaviy vazifalar bo'yicha xarajatlarni minimallashtirish va resurslarni boshqarishni yaxshilash imkonini beradi. Bu ma'lumotlarni qo'lda qayta ishlash zaruratining kamayishiga va xatolar sonining kamayishiga olib keladi, natijada rentabellikning oshishiga yordam beradi (4-rasm).

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Axborot va aloqa sohasida xizmatlar hajmi [Elektron resurs] // Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti. – URL: <https://stat.uz>.



**4-rasm. Moliyaviy jarayonlarda raqamli texnologiyalarni joriy qilish samaradorligi<sup>9</sup>.**

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonning moliya sektorida raqamlashtirish rentabellikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va biznes jarayonlarini tezlashtirishga hissa qo‘shmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi viloyatlaridagi korxonalarining moliyaviy bahosi tahlili iqtisodiy rivojlanish darajasidagi sezilarli mintaqaviy farqlarni ko‘rsatadi. Korxonalarining moliyaviy holatiga ta’sir etuvchi eng muhim omillar tabiiy va inson resurslarining mavjudligi, infratuzilmaning rivojlanish darajasi va iqtisodiyotning tarmoq tuzilishidagi farqlardir. Qizig‘i shundaki, turli viloyatlar korxonalarini turli moliyaviy natijalarni ko‘rsatmoqda, bu esa qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini aniqlash uchun batafsil tahlilni talab qiladi.

Chiroqchi tumani korxonalarining 2016–2023-yillar davomidagi moliyaviy bahosi agrar yo‘nalishdagi iqtisodiyot bilan bog‘liq o‘rtacha o‘shishni namoyon etmoqda. Asosiy e’tibor paxta, g‘alla va mevalarni yetishtirish hamda qayta ishlashga qaratilgan. Yirik fermer xo‘jaliklari va qayta ishlash zavodlari ijobiy moliyaviy natijalarni ko‘rsatmoqda, biroq ularning ishlab chiqarish imkoniyatlari qishloq xo‘jaligi mavsumiyligi va infratuzilmaning etishmasligi bilan cheklangan.

*1-jadval*

**Chiroqchi tumani korxonalarini moliyaviy tahlilining asosiy ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkich	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Investitsiyalar (trln so‘m)	0.2	0.3	0.3	0.4	0.4	0.3	0.3	0.4
Korxonalar daromadliligi	120	130	135	145	150	140	145	160
Likvidlik (%)	60.0	65.0	68.0	70.0	72.0	69.0	70.0	72.0
Bandlik darajasi (ming kishi)	1.5	1.7	1.9	2.0	2.1	2.1	2.1	2.2
Fermer xo‘jaliklari soni	100	110	115	120	125	130	135	140
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan tushum (mln so‘m)	200	220	230	240	250	245	255	270

<sup>9</sup> Tadqiqot asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O‘zbekistonning turli viloyatlari va tumanlaridagi korxonalarining moliyaviy bahosi shuni ko‘rsatadiki, mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘shini ta’minlash uchun agrar mintaqalarga alohida e’tibor qaratib, ularning infratuzilmasini yaxshilash va investitsiyalarni jalb qilish zarur. Bu korxonalarining samaradorligini oshirish va ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasining sanoat sektoridagi xo‘jalik subyektlarining moliyaviy salohiyati sanoat korxonalarining hozirgi moliyaviy holatini baholashni, shuningdek, ularning bozor sharoitlarining o‘zgarishlariga moslashish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Moliyaviy salohiyat resurslar majmuasi bilan belgilanadi, bu investitsiyalar hajmi, moliyaviy barqarorlik, likvidlik va korxonalarining rentabelligini o‘z ichiga oladi. Masalan, 2022 yilda mamlakatda sanoat ishlab chiqarishi o‘tgan yilga nisbatan 52,0% ga oshdi, bu esa tog‘-kon va qayta ishlash sanoatining asosiy tarmoqlariga kiritilgan faol investitsiyalar tufayli mumkin bo‘ldi.

2-jadval

**Qashqadaryo viloyatidagi neft-gaz korxonalari<sup>10</sup>**

Tuman	Neft-gaz korxonalari	Neft-gaz sanoatida bandlar soni	Huver-Balassa koeffitsiyenti
G‘uzor tumani	Sho‘rtan neft va gaz qazib olish boshqarmasi	3908	4,433
Sho‘rtan gaz-kimyoy majmuasi	3683		
MCHJ «Gissaqazneftgaz»	605		
MCHJ «O‘zbekiston GTL»	800		
Dehqonobod tumani	LUKOYL	625	0,422
Koson tumani	Koson neft-gaz qidiruv ekspeditsiyasi	992	0,562
MCHJ «Neft-gaz quduqlarini sinovdan o‘tkazish»	502		
Nishon tumani	«Epsilon Development» kompaniyasi	3465	2,289
Muborak tumani	«Muborak» neft va gaz qazib olish boshqarmasi	4063	10,211
Muborak gazni qayta ishlash zavodi	3520		
Muborak UZVCH	662		
MCHJ «Ko‘kdumalakgaz»	125		
Qarshi tumani	QQ «Jizzax Petroleum»	1623	1,455
XK «ERIEEL GROUP»	1174		
Neft-gaz xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar	1810		

Jadvalda Qashqadaryo viloyatidagi neft-gaz korxonalarida bandlik va Xuver-Balassa koeffitsiyentlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, G‘uzor va

<sup>10</sup> Qashqadaryo viloyati hokimligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Muborak tumanlari neft-gaz sanoatining asosiy markazlari hisoblanadi. G'uzorda 8996 kishi band bo'lib, Xuver-Balassa koeffitsiyenti 4,433 ni tashkil qiladi, Muborakda esa 8370 kishi band bo'lib, sanoatning ustunligini ko'rsatuvchi eng yuqori koeffitsiyent – 10,211 ni tashkil qiladi. Nishon tumani ham 3465 kishi band bo'lib, 2,289 koeffitsiyenti bilan ajralib turadi. Qarshida 4607 kishi band bo'lib, koeffitsiyenti 1,455 ni tashkil qiladi. Dehqonobod va Kasbi tumanlarida koeffitsiyentlar pastroq (0,422 va 0,562), bu esa neft-gaz sanoatining kamroq konsentratsiyasini ko'rsatadi.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha asosiy xulosalar quyidagilardan iborat: O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishi uchun sanoat sektorining xo'jalik subyektlari moliyaviy salohiyati muhim omildir. Modernizatsiya va diversifikatsiyaga kiritilgan investitsiyalar korxonalariga bozorda o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga imkon beradi. Modernizatsiya dasturlari va soliq imtiyozlari ko'rinishidagi davlat qo'llab-quvvatlashi korxonalarining rentabelligini oshirishga yordam beradi.

**Dissertatsiyaning uchinchi bobida** iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi sharoitida moliyaviy salohiyatdan foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish va joriy etish masalalari ko'rib chiqiladi. "Xo'jalik subyektlarining geterogenligi va disproporsiyalariga ta'sir etuvchi omillar"da global va milliy darajada xo'jalik subyektlari o'rtasidagi farqlarni keltirib chiqaradigan ko'plab omillar ta'kidlanadi. O'zbekiston sharoitida esa hududlarning moliyaviy salohiyatiga ta'sir etuvchi geografik, ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.


5-rasmda xo'jalik subyektlarining moliyaviy salohiyatini oshirish darajasi va ularning moliyaviy faolligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik modeli ko'rsatilgan bo'lib, bu natijaviy omil hisoblanadi. Model moliyaviy faollikning to'g'ridan to'g'ri raqamlashtirish darajasi va moliyaviy oqimlarni boshqarish va subyektlarning moliyaviy holatini baholashda sun'iy intellekt (SI) qo'llanilishiga bog'liqligini ko'rsatadi.

